



MAKTABGACHA TA‘LIM-TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH USTUVOR VAZIFA ETIB BELGILANGAN DAVRDA BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA NUTQIY TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Alimova Kamola Xayrulla qizi

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Logopediya
kafedra o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish ustuvor vazifa etib belgilangan vaqtda nutq nuqsonlari bor bolalarni maktab talimiga tayyorlash o‘z dolzarbligini ko‘rsatadi. Maktab ta‘limiga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biri – bolalarda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.*

Tayanch so‘zlar va tushunchalar: *nutq, tafakkur, sezgi, analiz, sintez.*

Аннотация: *В то время как совершенствование процессов дошкольного образования и воспитания на основе научно обоснованных подходов определено как приоритетная задача, подготовка детей с нарушениями речи к школьному обучению демонстрирует свою актуальность. Одним из основных критериев подготовки к школьному образованию является формирование у детей навыков чтения и письма*

Ключевые слова и понятия: *речь, мышление, интуиция, анализ, синтез.*

Annotation: *While improving preschool education and upbringing processes based on scientifically grounded approaches has been identified as a priority task, preparing children with speech disorders for school education demonstrates its relevance. One of the main criteria for preparing for school education is the formation of children's reading and writing skills.*

Key words and concepts: *speech, thinking, intuition, analysis, synthesis.*

Respublikamizda so‘nggi yillarda nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishda logopedik-korreksion ish usullarini takomillashtirish, ona tili xususiyatlarini inobatga olgan holda bolalar nutqini rivojlantiruvchi innovatsion texnologiyalarni takomillashtirishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish” ustuvor vazifa etib belgilangan. Maktab ta‘limiga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biri – bolalarda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bolalarni pedagogik va psixologik jihatdan maktabga tayyorlash muammolarini o‘rgangan ko‘pchilik olimlar bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish muammosiga alohida e‘tibor qaratadilar. Ma‘lumki, yozuv buzilishlari bilan aziyat chekadigan bolalarning katta qismini nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar, xususan nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar tashkil etadi. Shu bois, bu toifa bolalar yozma nutq buzilishlarining oldini olish maqsadida ishni ularning yozuv ko‘nikma va malakalarini maktabgacha yoshda rivojlantirishdan boshlash lozim.

Yozuv jarayoni xotira ishtirokisiz kechmaydi. (N.K.Korsakova). Nutq eshituv xotirasi qisqa muddatli xotirada yozma nutqqa aylantirish zarur bo‘lgan qator belgilarni saqlab



qolishga javob beradi. Nutq eshituv xotirasi suksessiv tashkil etilgan materialda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yozish uchun xotirada nafaqat tovushlar, so‘zlar va gaplarni, balki ularning ketma-ketligini ham saqlab qolishi zarur. Yozuvni muvaffaqiyatli egallash ko‘ruv xotirasining rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘lib, u harflarni eslab qolish, esda saqlash va ifodalashni ta‘minlaydi. (G.G.Misarenko). Bundan tashqari tanish so‘zni yozish, yozuvchidan xotirada mavjud obraz bilan yozilgan so‘z va xotirada saqlangan namuna bilan solishtirishni talab etadi. Yozuv – ko‘p qirrali nutqiy fikrlash jarayoni hisoblanib, tafakkurning analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, guruhlash operatsiyalari ishtiroki bilan ta‘minlanadi. Yozuv jarayonida tovushlar ketma-ketligini harflarning fazoviy ketma-ketligiga o‘tkazish simultan va suksessiv, analiz va sintez, taqqoslash umumlashtirish, mavhumlashtirish, guruhlash operatsiyalari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari yozuvning ketma-ket operatsiyalarini faqatgina suksessiv, analiz va sintez operatsiyalari yuqori darajada rivojlanganda amalga oshirish mumkin. Yozuv tabiati mavhum yozma nutqda matnni gaplarga va gaplarni so‘zlarga ajratish shartli xarakterga ega. Matnni gaplarga, gaplarni so‘zlarni ajratish, shuningdek so‘zni bo‘g‘inli va tovushli tahlil qilish ko‘nikmalarni egallash, analiz va sintez, umumlashtirish va guruhlash operatsiyalarining yuqori darajada shakllanganligini talab etadi. L.E.Jurovaning bolalarni savod egallashga tayyorlash bo‘yicha izlanishlarida muallif bolalarni savodga aynan o‘qish hamda yozish malakalarini egallashga tayyorlashda nutqiy tafakkurning rivojlantirilishi, so‘zlarni fonetik tahlili ko‘nikmasini tarkib toptirilishiga e‘tiborni kuchaytirish lozimligini uqtiradi. L.E.Jurova o‘zining qo‘llanmasida bolalarni savodga tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tarbiyachilar, ota-onalarga yo‘nalishdan kelib chiqqan holda qimmatli tavsiyalarni beradi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ishlar tashkiloti yuzasidan ish rejalarini hamda mashg‘ulotlar ishlanmasini taklif etadi. A.I.Voskresenskayaning (“Gramota v detskom sadu” (1981)) izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga tayyorlash jarayonini bayon qilingan. Muallif o‘z izlanishlarida bolalarning maktab ta‘limiga tayyorligi, tayorgarlikni belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri yozuv ko‘nikmalarini egallash ekanligini ta‘kidlab, o‘z izlanishlari natijalariga ko‘ra bolalarni maktabga tayyorlash dasturi va ularni yozuvga tayyorlash dasturini, shuningdek, ushbu dastur asosida namunaviy mashg‘ulot ishlanmalarini taklif etadi. Uning izlanishlari amaliy ahamiyati muallifning savodga tayyorlash ishlarini ijodiy yondashgan tarzda yoritib, mavzu doirasida o‘yinlardan keng foydalanganligidadir. R.E.Levina bolalarda yozuv ko‘nikmalari shakllanishi uchun ko‘ruv, eshituv va harakat analizatorlari o‘rtasidagi uzviy aloqa lozimligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, ular bu jarayonlardan birortasining yaxshi rivojlanmaganligi, yoki faoliyatdagi sustligi yozuv jarayonining to‘laqonli kechmasligini isbotlab berganlar. Grafomotor ko‘nikmalar yozuvni tashkil etuvchi operatsiyalar zanjirining oxirgi bo‘g‘ini hisoblanadi. Shuning uchun ular nafaqat kalligrafiyaga (husnixat), balki butun yozuv jarayoniga to‘liq ta‘sir qilishi mumkin. Masalan, ba‘zan harfni ifodalashdagi qiyinchiliklar bolaning e‘tiboriga shunchalik ta‘sir ko‘rsatadiki, u keyingi barcha operatsiyalarni noto‘g‘ri amalga oshiradi. Grafomotor ko‘nikma harflarning yozma shakli va ularni o‘zaro bog‘lanishini ifodalash imkonini beradigan, ya‘ni yozadigan qo‘lning ma‘lum pozitsiyalari va harakatlarini o‘z ichiga oladi. Harflarni tez, chiroyli, tushunarli va aniq yozish imkonini faqatgina to‘g‘ri shakllangan grafik



mahorat beradi. Noto‘g‘ri shakllangan grafik ko‘nikma yozuvda qator qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi: tempning sekinligi, noaniq, tushunarsiz yozuv, noto‘g‘ri grafik ko‘nikmani nafaqat tuzatish qiyin, balki imkonsiz hamdir. Eshituv-ko‘ruv-motor koordinatsiya – grafomotor ko‘nikmalar shakllanish jarayonining muhim faoliyatidir. Ko‘rish, eshitish va harakat analizatorlarining o‘zaro aloqalarini o‘rgangan olimlar (A.R.Luriya, E.V.Guryanov, M.M.Bezrukix, S.P.Yefimova, E.V.Novikova, N.V.Novotorseva, S.E.Gavrina va boshq.) grafomotor ko‘nikmalar quyidagi faoliyatlarning shakllanishiga bog‘liqligi haqida xulosalarga kelishdi:

- ko‘ruv va harakat nazorati (ko‘ruv-motor koordinatsiyalari);
- fazoviy idrok (ko‘ruv maydonining to‘liqligi, kengligi, har tomonlamaligi; ko‘ruv o‘tkirliigi, ko‘z bilan chamalash);
- harakatlar koordinatsiyasi (yozadigan qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirish; harakatlar yo‘nalishini mustaqil o‘zgartirish ko‘nikmalari);
- “qo‘l mohirligi” (mayda motorikani rivojlantirish);
- fazoviy tasavvurlar (“tana tuzilishi” haqidagi bilimlar; grafemalar va ularning aniq joylashuvini ko‘ra olish);
- predmet, uning tasvirini tahlil qila olish, chamalash jarayonlari;
- ritmni his qilish (ritmik tashkil etilgan elementlar qatorini ifodalay olish qobiliyati);
- ko‘ruv diqqati: grafik xatoliklarni bartaraf etish uchun zarur diqqat ko‘lamini taqsimlash (antisipasiyalar, perseveratsiyalar).

Shuni ta’kidlash lozimki, grafomotor ko‘nikmalar, harakat ko‘nikmalari bilan umumiy xususiyatga ega bo‘lsa-da, ular bir xil emas. Yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni bir tomondan harakat rivojlanishining qonuniyatlariga, ikkinchi tomondan nutqning intellektual faoliyatlariga bog‘liq. Yozuv ko‘nikmalarini shakllanishi boladan ushbu malakalarni egallashga tayyor bo‘lishini talab qiladi va har bir ko‘nikma o‘ziga xos sohalarda o‘qitishni talab qiladi.

Taxlil qilingan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga keldik: Yozuv ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallashda kognitiv funksiyalarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning barchasida bilish faoliyatlari nutq buzilishining darajasiga ko‘ra qaysidir darajada buzilgan bo‘ladi. Shu sabab, bolalarning yozuv ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli egallashlarida og‘zaki nutq bilan parallel ravishda barcha bilish faoliyatlarini rivojlantirish ishning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yozma nutq kamchiliklarining oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Alimova k. Kh. Peculiarities of the development of graph-motor skills in senior preschool children with speech disorders //conference zone. – 2023. – c. 310-318.
2. Alimova, K. (2021). Problems Of Parental Cooperation In Special Pedagogy. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 311-314.



3. Марковская И.Ф., Екжанова Е.А Развитие тонкой моторики рук у детей с
ЗПР // 1988